XORAZM VILOYATI URGANCH TUMANI HOKIMINING

QARORI

220500, Urganch tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy, telefon: (62)35-21-649, faks: 35-21-991

2022 - yil 18 - may 498-12-173-Q/22 Urganch tuman hokimligi

Urganch tumanida transport harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Urganch tumanida piyodalar va transport vositalarining harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida, Urganch tumani Chandirqiyot qishlog‘i Baqaylar mahallasi hududidan o‘tuvchi avtomobil yo‘lining har ikkala tomoniga kirish qismiga 3.4 “Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. Urganch tuman IIB (G‘.Sharipov), tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (B.Qalandarov) hamda tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Nurmetov) mazkur qarorning 1-bandida ko‘rsatib o‘tilgan manzilga 3.4 “Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatilishini ta’minlasinlar va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror “Urganch haqiqati” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Xo‘jaev zimmasiga yuklatilsin.

Урганч туман ҳокими **Ф.Шарипов**